

Jizzakh State Pedagogical Institute



**Journal of Preschool
Education**

*The faculty of pre-school
education*

O'YIN YORDAMIDA MAKTABGACHA YOSH BOLALARGA INGLIZ TILINI O'TGATISH .

Xolmurzayeva Muxlisa
Mamarahimova Gulzoda
JDPU talabalari

Annotatsiya: Qanday qilib o'yin yordamida maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish mumkin . Chet tillarini o'rgatishda maktabgacha yoshdagi bolalarga mashg'ulotlarni tashkil etishda qanday o'yin turlaridan foydalanilsa tarbiyalanuvchilar tomonidan mashg'ulotlar qiziqish bilan qabul qilinadi . Maktabgacha yoshdagi bolalarni xotirasini mustahkamlash , diqqatini jamlash , tasavvur olamini kengaytirish, hamda chet tilida soz boyligini oshirishda o'yin faoliyatining ahamiyati va o'yin turlari .

Kalit soz : O'yin , chet tili , o'yin texnikasi , vaziyatli o'yin , raqobatbardosh o'yin , ritm- musiqali o'yinlar , badiiy -ijodiy o'yinlar , o'yin maqsadi .

Yurtimizda boshlang'ich ta'limda ingliz tilini o'rgatishda eng asosiy va ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lgan , keyinchalik maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'tkaziladigan chet tili mashg'ulotlarining samaradorligini oshirishga keng imkoniyatlar yo'lini ochgan qarorlardan biri bu O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012 - yil 10 - dekabrda " Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida " PQ - 1875 sonli qaroridir. Ushbu qaror asosida chet tillarini , xususan ingliz tilini o'rgatish maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin tariqasida mashg'ulotlarni tashkil qilish , tarbiyalanuvchilarni mexanik tarzda sozlarni eslab qolishlari hamda to'g'ri talaffuzlarni shakllantirishda va ingliz tilida soz boyligini ortishida samarali yo'l bo'lib xizmat qilishni nazarda tutadi .

Chet tilini o'rgatishning asosiy maqsadi bu mashg'ulot orqali bolaning shaxsiy rivojlanishi ya'ni zamonaviy dunyodagi kop tilling hamda kop madaniyatli vaziyatga oson moslashishlari uchun kichik yoshdagi tarbiyalanuvchilardan boshlab ularni yangi til dunyosi bilan tanishtirish uchun qulay sharoit yaratish . Chet tillari xususan ingliz tilini o'rganish uchun maktabgacha tarbiya yoshi o'ziga xos yosh hisoblanadi . Maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarning psixologiyasini hisobga olgan holda shuni aytish mumkinki , ular nutqning fonetikasi hamda intonatsiyasiga juda sezgir , shuning uchun ta'limning boshlang'ich bosqichining asosiy vazifasi bolalarda to'g'ri talaffuzni shakllantirish bolib , ingliz tili mashg'ulotlarida turli xil mashqlar hamda maxsus didaktik mashqlar orqali ushbu maqsadga erishish mumkin bo'ladi . Fonemik eshitishni shuningdek nutq nafasini rivojlantirish uchun guruhlarda tashkil qilinadigan o'yinlar ham bolajonlarda

qiziqish uygotib , mashg'ulotlardan kozlangan maqsadga erishishimizda yordam beradi . Shu boisdan ham maktabgaha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari chet tilidagi nutqni smarali ozlashtiishi mumkin hisoblanadi . Chunki maktabgacha yosh tarbiyalanuvchilari keyingi bosqich (maktab , oliygoh)lariga qaraganda til materialini yanada moslashuvchan hamda tez yodlashlari uchun "tòsiq" deb ataluvchi narsaning òzi yoq ekanligi , ya'ni tarbiyalanuvchilarning mashg'ulotlarda faol qatnashishlari va savollarga hech ikkilanishlarsz javob berishlari uchun "hato javob bersam meni ustimdan kulishadi " qabilidagi òyning yoq ekanligi bois ham maktabgacha yosh bolalarga chet tillarini òrgatish oson kechishini kuzatishimiz mumkin .

Maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tillarini òrgatish usullari ba'zi ota onalarni hayratga soladi va ularda bir qator savollarning paydo bolishiga olib keladi . Masalan:

- nega farzandimdan ingliz tili mashg'ulotida nimalar òrganding deb sòrasam faqat òynadik deb javob beradi ?

- axr biz bu tarzda til òrganmaganmizku , oyin bilan nmani òrganadi ? qabilidagi bir necha savollar bilan murojat qilishadi . Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilariga chet tillarini òyin tariqasida òrgatishning sababi shundaki , ushbu yoshda bolalarni biron narsani òrganishga majburlash befoyda bòladi , negaki tarbiyalanuvchilarda bu davrda bolalik hukimronlik qiladi . Shuning uchun ham ular beixtiyor yod olishadi . Maktabgacha yosh bolalarning kòrgan , eshitganlari ular ular xotirasiga mexanik tarzda saqlanib qoladi . Maktabgacha yoshdan berilayotgan ta'limning avzalliklari shundan iboratki bolalar bu yoshda o'ynab , oson hamda tabiiy ravishda òrganadilar ... Yuqoridagi jumlagaga yana bir bor kòz yugurtiramz , ushbu jumlada òynab sòzining bosh rollarda kelishi ham maktabgacha yoshda grammatik qoidalarning keragi yoq ekanligini ham anglatadi . Chet tili mashg'ulotlarida òyin metodlaridan foydalanish eng samarali vositalardan biri hisoblanadi . Òyin davomida ularning tafakkuri , dunyoqarashi hamda fikrlashi kengayib boradi . Izlanishlar natijasi shuni kòrsatmoqdaki , ta'limga o'yin orqali yondashuv , ta'lim jarayonini osonlashtiradi, samaradorligini oshiradi va tarbiyalanuvchilarning chet tiliga bòlgan qiziqishini uygotadi. Bundan tashqari òyin tarzida tashkil etilgan mashg'ulotlar tarbiyalanuvchilarning oğzaki nutqini yaxshilashda ham asosiy vosita bolib xizmat qiladi . Òyin tarzida tashkil etilgan mashg'ulotlar odatiy mashg'ulotlarga qaraganda tarbiyalanuvchilarda qiziqish uygotibgina qolmasdan ushbu mashg'ulotda kòproq faollik kòrsatishlariga ham sabab bòladi . Òyin texnikasi maktabgacha yosh tarbiyalanuvchilariga chet tilini òrgatishning eng avzal usulidir. Buning mihiyati shundaki , tarbiyachi òyin òtkazadi , bolalar oyin davomida til kònikmasini yaxshilaydi . Bu metodika hayoliy vazifalarni yaratishga , bir rolni qabul qilishga asoslangandir. Demak , maktabgacha yoshdagi bollarga

chet tillarini o'rgatishda avval ularning qiziqishini aniqlab olish zaruriy shart hisoblanadi . Shunday ekan bu o'rinda ingliz tilini o'rganish uchun Djon Lokning " Dunyoga kelgan har bir chaqaloq ruhi " top -toza paxta " kabidir . Ushbu " top-toza paxta" tarzidagi ruhiga nimalarni yozish mutlaqo katta odamlar ixtiyoridadir . Shuning uchun balaning qanday inson bolishi , qanday shaxsiy fazilatlarga ega bolishi , bola hayotdan oladigan tajribaga , ozgalar bilan qilgan muloqotidan oladigan hayotiy tushuncha va tasavvurlariga bog'liqdir " fikrini keltirishimiz joiz hisoblanadi . Ushbu fikrdan kelib chiqadigan bolsak maktabgacha yoshdagi bolalarni bitta qolibga solib tarbiyalash emas , balki ular qiziqishini aniqlab, shunga muvofiq tarzda mashg'ulotlarni qiziqarli o'yin tarzida, bola ozini erkin his eta oluvchi muhitni yaratgan holda, tashkil etish tarbiyachining yaxshi natijalarga erishishiga xizmat qiladi. Shunday ekan , maktabgacha yoshdagi bolalarga o'yin texnikasida chet tillarini o'rgatish to'rt qisimga bolinadi. Ular :

- vaziyatli o'yinlar;
- raqobatbardosh o'yinlar;
- ritmik-musiqiy o'yinlar;
- badiiy yoki ijodiy o'yinlar ;

Vaziyatli o'yinlar - muayyan vaziyat yuzasidan muloqot qilish holatlarini hamda taqlid qiluvchi rolli o'yinlarni o'z ichiga oladi. Ushbu vaziyatli o'yin o'z navbatida reproductiv harakatdagi o'yinlarni ham o'z ichiga oladi . Bunda bolalar oddiy dialogni takrorlashda ma'lum bir vaziyatga qo'llashda va turli modellarni o'zlashtirishni talab qiladigan improvizatsiya o'yinlari hisoblanadi .

Raqobatbardosh o'yinlar - bu o'yin turi lug'at va grammatikani assimilyatsiya qilishga xissa qoshadigan o'yinlarning bir qismini o'z ichiga oladi .

Ritmik- musiqiy o'yinlar - bu dumaloq raqslar , qoshiqlar va she'riklar tanlovi bilan raqslar kabi barcha turlari bo'lib , bu o'yinda bolalar muloqot qobiliyatlarini egallashga emas balki nutqning fonetik va ritmik - metodik jihatlarni yaxshilashga yordam beradi .

Badiiy yoki ijodiy o'yinlar - ushbu o'yin va badiiy ijod chegarasida turgan faoliyat ya'ni o'yin orqali bola tomon yo'l . Ular oz navbatida drammatizatsiyav (ingliz tilidan olingan bo'lib , kichik sahnalarni sahnalashtirish , darammalashtirish) , visual o'yinlarga bo'linishi mumkin hamda rangli rasmlar o'g'zaki va o'g'zaki ijodiy qofiyalarni tanlash.

O'yin mashg'ulotlarining asosiy avzalliklari shundaki , u har qanday yoshdagi bolalar uchun moslashadi , uning yordamida biz o'g'zaki nutqni ham , grammatika , imlo va boshqalarni rivojlantirishimiz mumkin . Shunday ekan biz ingliz tili mashg'ulotlarini tashkil qilishimizda salomlashib mavzuni chuntirishga o'tib ketmasdan avval bolalar bilan kichik davra suhbatini uyushtirishimiz , ushbu suhbat davomida mavzuga oid tushunchalarni ham berib o'tishimiz lozim . Mashg'ulotni shunchaki odatdagiday tashkil qilmasdan bolalarni qiziqtirish uchun har xil o'yinlardan

foydalangan holda bolalar diqqatini tortishi va mashg'ulotga oson kirishib olishlariga yordam beradi. Biz chet tilini o'rgatishda foydalaniladigan bir qator o'yinlarni keltirib o'tamiz:

Kozgu o'yini - ushbu o'yinni mashg'ulotda qollashdan asosiy maqsad tarbiyalanuvchilar diqqatini hamda kuzatuvchanligini oshirishga qaratilgan bolib bolaning sinchkovligini oshirishda xizmat qiladi.

Xatosini top o'yini - bu o'yinni chet tillarini o'qitishda tanlanishidan maqsad bolalarning mavzularni qay darajada ozlashtirganliklarini aniqlab olish hisoblanadi. Bunga misol qilib yovvoyi hayvonlar mavzusini o'tgan bolsa, yovvoyi hayvonlar to'plamiga uy hayvonni aralashtirib qoyishimiz bolalarning diqqatligini oshiradi mavzuni yanada ozlashtirib olishlariga samarali xizmat qiladi.

Yana bir qiziqarli o'yinlarimizdan biri bu mavzuyimiz bo'yicha yovvoyi hayvonlar rasmini ilib qo'yamiz bir tarbiyalanuvchi chiqadi va biz bu qaysi hayvon deb savol bersak, bolalar javob beradilar agar javob berolmasalar turgan joylarida she'r aytib song joylariga o'tiradilar. O'yin shu zailda davom etadi.

Ovozli ertak o'yini - bu o'yin tarbiyachi audio ertakni qo'yib berishi va bolalar bilan birgalikda ertak rasmlarini kuzatib boradilar, ushbu jarayonda bolalar kuzatuvchanligi va nutq talaffuzini yaxshilashda yetakchi o'rin tutadi.

Multfilimlar - bu o'yin faoliyati bolmasa ham ammo bolajonlarning chet tillarini oson va samarali ozlashtirishlari uchun muhim vosita hisoblanadi. Bolalar multfilimlarda gaplariga chunmasliklari mumkin ammo ular multfilim qahramonlarining hatti harakatlariga qarab ham chunib oladilar va ularda so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish jarayoni ham rivojlanib boradi.

Va yana bir o'yin faoliyatiga yaqin bolgan mavzuga mos muhitni yaratish bu bolalarning mashg'ulot jarayonida o'tiladigan mavzuga qiziqishi va mavzu ichiga kirib ketishlariga yordam beradi. Misol uchun oshxona mavzusi bolsa shunga mos korgazmalar kerakli oshxona jihozlarining bolishi bolalar o'zlarini osha muhitda his qilishlariga yordam beradi hamda tarbiyachining mavzuga mos muhitni talab darajasida tashkillashtirishi tarbiyachiga qoyilgan talabdir.

Shu kabi o'yinlardan foydalanish chet tilini yaxshi va samarali ozlashtirishlarida komak beradi. Barchamizga ma'lumki maktabgacha ta'lim yoshidanoq chet tilini ozlashtirish imkoniyatlari chinakamiga beqiyosdir. Biz bunga misol tariqasida K.D. Usheniskiyning ushbu yozganlarini keltirishimiz mumkin "Bola, biz bir necha yil ichida organa olmaydigan darajada, bir necha oyda organadi. Biz ushbu fikrdan shuni anglashimiz mumkinki bolalar maktabgacha ta'lim yoshidanoq chet tillariga yonaltirish lozim ekan. Bolalarning mexanik tarzda eslab qolishlari, hamda ularning manaviy dunyo qarashini kengaytiradi ularda tillarni organishga qiziqish uyg'otadi. O'yin faoliyati esa bolalarda yanada qiziqish uyg'otadi.

Foyalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda "Chet tillarini o'rgatish tizimini yanada takomillashtirish chora - tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875 -sonli qarori.
2. Mustafoulova H. A - "English for kids" , o'quv qo'llanma, Jizzax 2016.
3. Mustafoulova H.A, Ahmedova F.X- "Tests for kids", o'quv qo'llanma, Jizzax 2016.
4. Xoshimov O , Yoqubov I " Ingliz tili o'qitish metodikasi " Tosh. 2003.
5. Chet tillarini o'qitish va o'rgatish muammolari . Toshkent TDPU 2006.